Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalarida qo'shiq ijrochiligi malakalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari ........................................................................................................ 509
Murodov Mirshoxid Burxanovich

Umummuhandislik fanlarini o'qitish jarayonida muhandislik oliy ta'lim muassasalari talabalarining texnologik kompetentligini shakllantirish .......................................................................... 513
Kiyomov Abdulla Xaytaliyevich

Психолого-педагогический анализ использования исторических материалов на уроках математики в начальных классах........................................................................................ 520
Джавлиева Гулнара Раушановна

Transport vositalari muhandisligida virtual reallik va simulyatsiyaga asoslangan ta'lim texnologiyalarini joriy etish: amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga tizimli yondashuv ................. 529
Tashpulatov Boyburi Baymuratovich

Adaptiv texnologiyalar va ularning ta'lim tizimidagi o'rni.......................................................................... 533
Quchqarova Dilnavoz Shaymaxammat qizi

Talaba-yoshlarda futbol mashg'ulotlari asosida jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari ........................................................................................................ 538
Alimov Tojiddin Yaxshibayevich

Milliy madaniy meros asosida talabalarda ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatni rivojlantirish ............................. 542
Nomanov Kozimjon Kamoliddinovich

Innovatsion o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda mayda motorikani rivojlantirish yo'llari ......... 546
Nuritdinova Xurshida Norpulatovna, Azimova Umida To'ra qizi

Pedagogical opportunities for developing productive skills in english language learning .......................... 549
Shohida Otahanova

Bosh miya o'smasi bo'lgan maktab o'quvchilariga zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil etish ........................................................................................................ 552
Xakimova Gulshat Abdusalomovna, Nurmuhammedova Ruxshoda Mirsodiq qizi

# MILLIY MADANIY MEROS ASOSIDA TALABALARDA IJTIMOIY VA AXLOQIY MAS'ULIYATNI RIVOJLANTIRISH

Nomanov Kozimjon Kamoliddinovich
University of Business and Science,
pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida talabalarning ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatini shakllantirishda milliy madaniy merosning o'rni yoritilgan. Globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlanayotgan sharoitda yosh avlodni ma'naviy kamolotga yetkazishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar hamda madaniy meros obyektlarining tarbiyaviy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, ijtimoiy va axloqiy mas'uliyat tushunchalarining mazmun-mohiyati, milliy madaniy merosning talabalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi roli, jumladan, ularda insonparvarlik, adolat, fuqarolik burchi kabi sifatlarni shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** madaniy meros, ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy mas'uliyat, ma'naviy-axloqiy tarbiya, fuqarolik faolligi, madaniy identifikatsiya, madaniy iftixor, pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar.

**Abstract:** This article examines the role of national cultural heritage in developing students' social and moral responsibility in the context of modern society. In the era of globalization and the rapid development of information and communication technologies, national values, customs, traditions, and cultural heritage objects play an important educational role in the spiritual development of young people. The article discusses the content and essence of the concepts of social and moral responsibility, as well as the role of national cultural heritage in students' moral and ethical education, including the cultivation of qualities such as humanism, justice, and civic duty, which contribute to social engagement.

**Key words:** cultural heritage, social responsibility, moral responsibility, moral and ethical education, civic engagement, cultural identification, cultural pride, pedagogical technologies, interactive methods.

**Аннотация:** В статье рассматривается роль национального культурного наследия в формировании социальной и моральной ответственности студентов в условиях современного общества. В условиях глобализации и развития информационно-коммуникационных технологий национальные ценности, обычаи, традиции и объекты культурного наследия имеют важное воспитательное значение для духовного развития молодого поколения. Раскрываются содержание и сущность понятий социальной и моральной ответственности, а также роль национального культурного наследия в духовно-нравственном воспитании студентов, включая формирование таких качеств, как гуманизм, справедливость и гражданский долг, способствующих социальной активности.

**Ключевые слова:** культурное наследие, социальная ответственность, моральная ответственность, духовно-нравственное воспитание, гражданская активность, культурная идентификация, культурная гордость, педагогические технологии, интерактивные методы.

## KIRISH

Bugungi zamonaviy jamiyat taraqqiyoti davrida inson kapitali, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamoloti strategik jihatdan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv jarayonida, axborot makonining kengayishi va turli madaniy ta'sirlarning kuchayishi sharoitida talabalarda ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatni shakllantirish murakkab, shu bilan bir qatorda, nihoyatda dolzarb pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayonda milliy madaniy meros o'zining boy tarbiyaviy salohiyati bilan alohida ahamiyatga ega bo'lib, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda mustahkam nazariy va amaliy asos vazifasini bajaradi.

Milliy madaniy meros jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan ma'naviy, axloqiy, estetik va ijtimoiy qadriyatlar majmuasi bo'lib, u xalqning dunyoqarashi, turmush tarzi va ma'naviy tajribasini o'zida mujassam etadi. Ushbu meros asosida tarixan shakllanib kelgan xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, an'analar, milliy bayramlar, axloqiy me'yorlar hamda buyuk mutafakkirlar tomonidan yaratilgan ilmiy va badiiy asarlar shular jumlasidandir. Mazkur meroslar yosh avlod tarbiyasida, ayniqsa, talabalarda ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatni shakllantirishda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy mas'uliyat shaxsning jamiyat oldidagi burch va vazifalarini anglashi, ularni vijdonan bajarishga intilishi hamda o'z faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini tushunishi bilan belgilanadi. Axloqiy mas'uliyat esa insonning o'z xatti-harakatlarini umumqabul qilingan axloqiy me'yorlar asosida baholashi, o'zini o'zi nazorat qilishi va ma'naviy javobgarlikni his qilishi bilan bog'liq. Ushbu ikki tushuncha o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularni rivojlantirish jarayonida milliy madaniy merosdan maqsadli va tizimli foydalanish imkonini kengaytiradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzu doirasidagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy madaniy merosdan tizimli va maqsadli foydalanilgandagina talabalarda ijtimoiy faollik, axloqiy barqarorlik va fuqarolik mas'uliyati sezilarli darajada yuksaladi. Biroq amaliyotda bu imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayotgani, metodik ta'minotning yetarli emasligi, ayrim hollarda milliy tarbiya masalalariga yetarlicha e'tibor qaratilmayotgani kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa ushbu sohada ilmiy-uslubiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish va amaliyotga tatbiq etish zaruratini ko'rsatadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasida ham ijtimoiy va siyosiy nuqtai nazardan bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Shu sohani yanada rivojlantirishga doir Prezident qaror va farmonlari hamda bir qator chora-tadbirlar dasturlari belgilangan. Shular jumlasidan, yoshlarda siyosiy ong va siyosiy madaniyatni takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi PQ-406-son[1] qarori qabul qilingan bo'lib, bu qaror doirasida yoshlarning milliy meros va milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabati hamda huquqiy va axloqiy qarashlari takomillashtirib borilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, yurtimizda ma'naviy ishlarni oshirish maqsadida "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son[2] qarori yoshlarda moddiy va ma'naviy merosni asrab-avaylashga bo'lgan tuyg'ularni orttirishga dasturilamal vazifasini bajarmoqda.

Ta'lim jarayonlarida "Kadrlarni tayyorlash bo'yicha milliy dastur"da ham "ta'limning barcha bosqichlari va darajalarida talabalarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini milliy istiqlol prinsiplari, xalqning boy ma'naviy merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlantirish" vazifasiga keng e'tibor qaratilgan. Ushbu vazifalar mustaqillik g'oyasining asosini tashkil etib, ularni zamonaviy yoshlar ongiga singdirishda ta'lim va tarbiya jarayoni muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yoshlarning ma'naviy va axloqiy jihatdan tarbiyasi va unda milliy merosning o'rni, shuningdek, milliy merosni asrab-avaylash borasidagi qarashlarni bir qator mutafakkirlarning asarlarida ko'rishimiz mumkin. Jumladan, jadid ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari orqali o'zbek xalqining milliy axloqiy qadriyatlarini ilmiy-pedagogik jihatdan o'rganish ilmiy nuqtai nazardan asoslab berilgan. Ushbu asarda axloqiy tarbiya masalalari insonning milliy ruh, urf-odat va ma'naviy meros bilan uyg'un holda yoritilishi bilan alohida ajralib turadi. Avloniy axloqni inson kamolotining asosiy mezoni sifatida ko'rsatib, tarbiya avvalo oiladan boshlanishi va jamiyat orqali shakllanishini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan muallif milliy tarbiyaning asosi sifatida xalq an'analari, urf-odatlari va diniy qadriyatlarni ko'rsatib bergan. Masalan, u odob, hayo, insof, diyonat kabi tushunchalarni milliy axloqning ustuni sifatida ta'riflaydi. Milliy qadriyatlar talabalarda insonparvarlik, adolat, halollik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Xalq urf-odatlari va an'analari esa ijtimoiy munosabatlar madaniyatini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lib, yoshlarda kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik, jamoada hamjihatlik kabi ko'nikmalarni qaror toptiradi. Shuningdek, milliy adabiyot va folklor namunalari orqali axloqiy g'oyalar ta'sirchan va obrazli shaklda yetkazilib, talabalarning ma'naviy dunyosi boyitiladi.

Milliy bayramlar va marosimlar esa ularda milliy o'zlikni anglash, jamiyatga daxldorlik hissini kuchaytirish va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan talabalarda ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatni shakllantirish jarayoni ko'p bosqichli va kompleks xarakterga ega bo'lib, u ta'lim va tarbiyaning o'zaro uyg'unligini talab etadi. Bu jarayonda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy faoliyat ham muhim o'rin tutadi. Xususan, talabalarni jamoat ishlariga jalb etish, ijtimoiy loyihalarda ishtirokini ta'minlash, ixtiyoriy faoliyat turlarini kengaytirish orqali ularda mas'uliyat hissini rivojlantirish mumkin. Bunda shaxsiy namuna, ijtimoiy muhit va pedagogik ta'sir omillari o'zaro uyg'un holda ta'sir ko'rsatadi. Sharq mintaqalarida tarixan shaxs kamolotida ta'lim va tarbiya jarayoni doimo uyg'un holda olib borilgan bo'lib, bu boradagi qarashlardan birini qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfusiyning qarashlari va asarlarida ham ko'rishimiz mumkin. Konfusiy qarashlarida axloqiy tarbiya masalasi jamiyat barqarorligi va inson kamolotining asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi. Uning ta'limotida ayniqsa, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarga asoslangan tarbiya masalasi yetakchi o'rin tutadi.

1 https://lex.uz/docs/-3026246
2 https://lex.uz/ru/docs/-4071203

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida interaktiv usullar, muammoli ta'lim, keys-stadi, rolli o'yinlar va loyiha asosida o'qitish kabi yondashuvlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ularda tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi hamda ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatni chuqur anglashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, milliy madaniy meros mazmunini mazkur texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish ta'lim samaradorligini yanada oshiradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Madaniy ta'lim va fuqarolik rivojlanishi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarda milliy meros bilan bog'liq bilim va tajribalar tartibli ta'lim muhiti orqali shakllanadi. Shu bilan birga, madaniy yaqinlikni his etish va merosni zamonaviy jamoat muammolariga ahamiyatli deb qabul qilish ularning jamoatchilik va fuqarolik faoliyatida ishtirok etish istagini oshirishga xizmat qiladi.

Qadriyatlar ijtimoiylashuv nuqtai nazaridan ta'lim muassasalarida madaniy qadriyatlar va me'yorlarni yosh avlodga yetkazishda muhim bog'lovchi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, qadriyatlarni o'rganish faqatgina madaniy bilimlarni egallashni o'z ichiga olmaydi, balki jamoaga mansublik va ijtimoiy majburiyatlar haqidagi ishonchlarni ham o'zlashtirishni talab qiladi (Grusec va Goodnow, 1994; Benish-Weisman va boshq., 2013).

Universitet talabalari uchun madaniy meros ta'limi keng qamrovli ijtimoiylashuv muhiti sifatida xizmat qilishi mumkin, bu esa madaniy qadriyatlarni legitimlashtirish, shaxsiy rivojlanishni milliy va jamoat qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish hamda jamiyatning faol a'zosi bo'lish ma'nosini anglash uchun ramziy resurslar taqdim etish bilan ifodalanadi (Liu va boshq., 2025; Sagiv va boshq., 2022; Pascarella va Terenzini, 1991). Shu bilan birga, tadqiqotlarda yoshlar orasida fuqarolik faoliyati nafaqat fuqarolik bilimlari va ko'nikmalari bilan, balki shaxsiy identifikatsiya hamda emosional majburiyatlar orqali ham shakllanishi ta'kidlanadi (Ehrlich, 2000; Zaff va boshq., 2010; Flanagan va Levine, 2010; Finlay va boshq., 2010).

Madaniy meros ta'limda ko'pincha moddiy va nomoddiy madaniy resurslarni o'quv jarayoniga integratsiya qiluvchi ta'limiy amaliyot sifatida qaraladi. Uning maqsadi talabalarning madaniy merosni tushunishi, qadrlashi va madaniy davomiylik haqida xabardorligini oshirishdan iborat. Universitet kontekstida meros bilan bog'liq kurslar va ta'limiy faoliyatlar talabalarga madaniy an'analarni statik tarixiy yodgorliklar sifatida emas, balki zamonaviy ijtimoiy masalalar va umumiy farovonlik uchun muhim resurslar sifatida qabul qilish imkonini beradi (Sweeney va Tanaka, 2022). Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, madaniy o'rganish tajribalari jamoatchilik ogohligini oshirish, umumiy fuqarolik me'yorlarini qo'llab-quvvatlash va yoshlarning fuqarolik hayotida ishtirok etish istagini kuchaytirish bilan bog'liq. Bu natijalar madaniy meros talabalarning hayotiy faoliyatini, ijtimoiy bog'lanishni va fuqarolik ishtirokining kundalik hayotdagi ahamiyatini kuchaytirish orqali fuqarolik faoliyati bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

O'zbekistondagi oliy ta'lim tizimida madaniy meros ta'limini talabalarning fuqarolik faolligini shakllantirishga yo'naltirilgan holda joriy etish kompleks pedagogik yondashuvni talab qiladi. Bunday yondashuv, avvalo, ta'lim jarayonida milliy-madaniy qadriyatlarning mazmunan va funksional jihatdan integratsiyalashuvini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, u talabalarda nafaqat madaniy bilimlarni, balki ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik burchi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga bo'lgan ichki ehtiyojni ham shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, madaniy merosni o'rganish jarayoni shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va qadriyatlarga tayangan ta'lim modellarini amalga oshirishni taqozo etadi.

Mazkur jarayonda loyihaga asoslangan, muammoli ta'lim va tajribaviy o'qitish kabi zamonaviy pedagogik metodlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, loyiha faoliyati orqali talabalar madaniy meros obyektlari va an'analarini mustaqil tadqiq etadi, ularning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini anglaydi hamda ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqada bo'lish tajribasini orttiradi. Muammoli ta'lim esa madaniy merosni saqlash, uning transformatsiyasi va globallashuv sharoitidagi o'rni kabi masalalar yuzasidan tanqidiy va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi. Shu bilan birga, amaliy o'qitish shakllari – muzeylar, tarixiy obidalar va madaniy maskanlarga tashriflar – talabalarda madaniy identifikatsiya, emosional bog'lanish va madaniy iftixor tuyg'ularini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, ta'lim jarayonida servis-o'qitish elementlarini qo'llash muhim ahamiyatga ega bo'lib, u orqali talabalar madaniy merosni targ'ib qilishga qaratilgan ijtimoiy loyihalarda ishtirok etadi, jamoatchilik bilan hamkorlik qiladi va o'z faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini oshiradi. Mazkur jarayonda keys-tahlil, rolli o'yinlar, diskussiya va debatlar kabi interfaol usullar talabalarning muloqot madaniyati, fuqarolik pozitsiyasi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, interdisiplinar yondashuv madaniy merosni tarix, sotsiologiya va pedagogika nuqtai nazaridan kompleks o'rganish imkonini beradi. Amaliyotda mazkur yondashuvlarni samarali joriy etish uchun madaniy merosni ta'limiy o'quv dasturlariga tizimli ravishda integratsiya qilish, universitet tizimida madaniy muhitni shakllantirish, shuningdek, muzeylar, mahalliy institutlar va madaniy markazlar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Bu orqali ta'lim jarayoni nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmay, talabalarning real ijti-

moiy-madaniy muhitda faol ishtirokini ta'minlaydi. Umuman olganda, madaniy meros ta'limining mazkur pedagogik model asosida tashkil etilishi talabalarda madaniy identifikatsiya va madaniy iftixorni mustahkamlaydi hamda ularning fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas'uliyati va jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissini rivojlantiradi. Bu o'z navbatida, oliy ta'limning strategik maqsadlari bilan uyg'un holda faol pozitsiyaga ega barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, bugungi tezlik bilan rivojlanib borayotgan dunyoda yosh avlodning ma'naviy va axloqiy jihatdan rivojlanishi ta'limiy va tarbiyaviy jihatdan muhim pedagogik mas'uliyatning ortishiga sabab bo'lmoqda. Madaniy merosning boy tarbiyaviy potensiali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik burchini anglash, axloqiy qadriyatlar asosida o'zini nazorat qilish va ma'naviy kamolotga erishishning asosiy omili hisoblanadi. Milliy merosdan maqsadli va tizimli foydalanish orqali talabalarda ijtimoiy faollik, axloqiy barqarorlik va madaniy identifikatsiyani sezilarli darajada yuksaltirish mumkinligi kuzatilmoqda. Shuningdek, tarixiy meros, adabiy manbalar, an'anaviy urf-odatlar hamda milliy bayramlar talabalarda milliy o'zlikni anglash, hamjamiyatga daxldorlik hissini kuchaytirish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkonini yaratadi.

Shuni ta'kidlash joizki, ilmiy tadqiqotlar talabalarda madaniy meros bilan bog'liq bilim va tajribalarning jamiyat hayotidagi ahamiyatini anglashini ko'rsatadi, bu esa ularning fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyati va madaniy iftixorini mustahkamlaydi. Shu tarzda, oliy ta'limda milliy madaniy meros ta'limini maqsadli va kompleks yo'l bilan amalga oshirish yosh avlodda barkamol shaxs, fuqarolik mas'uliyati va madaniy identifikatsiyani shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi PQ-406-son qarori https://lex.uz/docs/-3026246
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi qarori https://lex.uz/ru/docs/-4071203
3. Yo'ldoshev, J., Hasanov, B. Cultural Heritage and Youth Education. Tashkent: Ma'naviyat, 2021. - 196 p.
4. UNESCO. Heritage Education for Sustainable Development. Paris: UNESCO Publishing, 2019. - 152 p.
5. Raximova, S. "Innovative Technologies in Teaching Cultural Heritage." Education and Innovation Journal, 2022, №2, pp. 55-61.
6. Mamarasulov, U. Methodology for Developing Students' Reflective Competencies. Tashkent: University Press, 2020. - 150 p.
7. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992.
8. Konfusiy. Lun yuy (Suhbatlar va mulohazalar).
9. Akhmedova, D. "Using Cultural Heritage in Moral and Ethical Education of University Students." Problems and Solutions in Higher Education, 2023, №4, pp. 40-47.
10. Karimova, M. "The Role of Cultural Heritage in Developing Students' Ethical Awareness." Pedagogical Research Journal, 2021, №3, pp. 22-29.
11. G'afforov, A. Theoretical Foundations of Goal-Oriented Education in Moral Development. Tashkent: Tafakkur, 2018. – 180 p.
12. Monteagudo-Fernández, J., Gómez-Carrasco, C. J., and Chaparro-Sainz, Á. (2021). Heritage education and research in museums: conceptual, intellectual and social structure within a knowledge domain (2000-2019). Sustainability, 13:6667. doi: 10.3390/su13126667
13. Pascarella, E. T., and Terenzini, P. T. (1991). How College Affects Students: Findings and Insights From Twenty Years of Research. San Francisco, CA: Jossey-Bass Inc.
14. Phinney, J. S. (1992). The multigroup ethnic identity measure: A new scale for use with diverse groups. Journal of Adolescent Research, 7, 156-176. doi: 10.1177/074355489272003.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №4(1)**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.